



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Adilbekova Manzura Usenbek qizi**

*Nukus innovatsion instituti, Maktabgacha va Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası assistent o‘qituvchisi*  
[manzura.adilbeko@gmail.com](mailto:manzura.adilbeko@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15079417>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirish xususiyatlari va asosiy komponentlari (kognitiv, emotsional, xulq-atvor) haqida so‘z yuritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasidagi yoshga doir munosabatlarning asosiy xususiyatlari, munosabat turlari tavsiflanadi. Shuningdek, shaxslararo munosabat tushunchasining mazmuni ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** shaxslararo munosabat, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, maktabgacha yoshdagi bola, xulq-atvor, muloqot, o‘yin.

Maktabgacha yoshda bolalar ilk bor o‘z qiziqishlarini, ehtiyojlarini, hissiyotlarini boshqarishni va ifodalashni o‘rgana boshlaydi. Ayniqsa, atrofidagi insonlar bilan aloqalar o‘rnatishni, hissiy va ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni anglashni o‘rganadilar. Bu davrda bolalar uchun shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, ularning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun juda muhim bir jarayon hisoblanadi. Shaxslararo munosabatlarning shakllanishi nafaqat bolalarning jismoniy va hissiy holatini yaxshilash, balki ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartida [1] maktabgacha yoshdagi bolaning muhim kompetensiyalari tarkibiga kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar kiritilgan bo‘lib, ular bolaning muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasini, shuningdek hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahoratini egallashini ko‘zda tutadi.

Bolalar o‘z ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirgan sari, bir-birlari bilan yanada samarali muloqot qilishni o‘rganadilar. Bu jarayon ularga turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashish, o‘z fikrlarini aniq va to‘g‘ri ifodalash, murosaga kelish va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beradi.

Bugungi kunda shaxslararo munosabatlar mavzusi ko‘pchilik olimlarning tadqiqot ob’ektiga aylangan bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zaro munosabatlari yuzasidan S.Bishkova, Y.Kasatkina, Ya.Kolominskiy, V.Muxina singari rus psixologlari ilmiy izlanishlar olib borishgan.



Shaxslararo munosabatlar – odamlar o‘rtasidagi sub’ektiv aloqalar bo‘lib, ular birgalikdagi faoliyat va muloqot jarayonida odamlarning bir-biriga ta’sir qilish tabiati va usullarida ob’ektiv ravishda namoyon bo‘ladi [5. 295].

Shaxslararo munosabatlar – bu odamlarning bir-birini idrok etadigan va baholaydigan munosabatlar, yo‘nalishlar va boshqa dispozitsiyalar tizimi [4. 346]. Shaxslararo munosabatlar boshqa turdagi munosabatlardan emotsional asosning mavjudligi bilan farqlanadi. Ular odamlarning bir-biriga bo‘lgan his-tuyg‘ular va emotsiyalar asosida paydo bo‘ladi.

A.Bodalyov o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi shaxslararo munosabatlarning uchta asosiy komponentlarini ajratib ko‘rsatadi:

- kognitiv yoki informatsion: ruhiy jarayonlarni o‘z ichiga olib, sherigining psixologik xususiyatlarini o‘rganadi;

- affektiv va emotsional: odamlarning hissiyotlari, his-tuyg‘ulari va hissiy tajribalarida ifodalanadi;

- xulq-atvor: imo-ishoralar, yuz ifodalari, nutq va pantomimikani o‘z ichiga oladi [2].

Katta va maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning o‘zaro munosabatlarida yuqorida ta’kidlangan barcha uch komponentni ham kuzatish mumkin. Bu yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yin ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, bola o‘ynash ushun sherik topishda tengdoshi haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi, uni tanlaydi va o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan odam bilan muloqot qilishga intiladi.

Maktabgacha yoshda bolaning dunyosi endi faqat oilasi bilan chegaralanmaydi, balki u boshqa bolalar va tengdoshlari bilan aloqaga kirisha boshlaydi. Bola o‘sib ulg‘aygan sari tengdoshlari bilan aloqalar va nizolar u uchun tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Bularni hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirishning xususiyatlari quyidagilar bilan izohlanadi:

➤ bola katta bo‘lgan sari kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish, munosabat o‘rnatish va hamkorlik qilish zarurati paydo bo‘ladi;

➤ bolada tengdoshlari tomonidan tan olinish va hurmat qilinishga muhtojlik paydo bo‘ladi, ya’ni ular bu yoshda bir-birlariga ko‘proq e’tibor va berishga harakat qilishadi;

➤ tengdoshi bilan munosabat o‘rnatish umumiy maqsadga erishish uchun amalga oshiriladi, ya’ni o‘zaro yordam, do‘stlik tuyg‘usi, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka hamdardlik ko‘rsatish qobiliyati namoyon bo‘ladi;



- maktabgacha yoshdagi bolalarning do'stlari bilan munosabatlari vaziyat va beqarorlik bilan tavsiflanadi (bir-biri bilan janjallashish va yarashishlar kuniga bir necha marta sodir bo'ladi);
- bolaning shaxsiy fazilatlarini baholash katta ahamiyatga ega, ya'ni ijobiy shaxsiy fazilatlar bolalarning birgalikdagi faoliyati va muloqati uchun bir-birini tanlash motivlaridan biriga aylanadi;
- o'yin faoliyati shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishning asosi bo'lib, o'yin faoliyatida bola muloqot tajribasiga ega bo'ladi, munosabat o'rnatish qoidalarini o'rganadi.

Bolalar o'rtasidagi muloqot va munosabatlar murakkab rivojlanish jarayonidan iborat, unda uchta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin.

Kichik maktabgacha yoshda (3-4 yosh) muloqotning har bir ishtirokchisi o'ziga e'tiborni jalb qilishga va sherigidan hissiy javob olishga harakat qiladi. Bu yoshda muloqot va o'zaro munosabat vaziyatga, muayyan muhitga va sherikning amaliy harakatlariga bog'liq bo'ladi. Bola tengdoshi bilan o'zaro munosabari jarayonida hissiy va faol bo'ladi, bu bolalarning bir-biriga taqlid qilishidan (chapak chalish, sakrash, aylanish v.h.) dalolat beradi.

Bola hayotining beshinchi yilida bolalar ongli ravishda boshqa bolalar bilan o'ynashni afzal ko'rishadi. O'yin jarayonida o'z harakatlarini sherigining harakatlari bilan muvofiqlashtirishni va umumiy natijaga erishishni o'rganadi. Bunday o'zaro ta'sir hamkorlik deb ataladi. Bu yoshda bola boshqalarning e'tibornini jalb qilishga intiladi, sherigining qarashlari va yuz ifodalarida unga nisbatan munosabat belgilarini sezadi, sheriklarining e'tiborsizligi va tanbehlariga javoban norozilik bildiradi.

6-7 yoshda bolaning tengdoshlari bilan hozir sodir bo'layotgan narsalar bilan hesh qanday aloqasi bo'lmagan narsalar haqida muloqot qila oladi. Bolalar bir-biriga qayerda bo'lgani va nimani ko'rgani haqida aytib berishadi, o'zlarining rejalarini baham ko'rishadi va boshqa bolalarning harakatlarini baholay oladilar. Bu yoshda ular o'rtasidagi o'yinlar va o'yinchoqlar bilan bog'liq bo'lmagan aloqa o'rnatiladi. Bolaning do'stona munosabati, tengdoshlarining faoliyati va tajribalarida hissiy ishtiroki sezilarli darajada oshadi. Hatto o'yin qoidalariga qaramasdan, ular tengdoshlariga yordam berishga intiladilar, to'g'ri harakat qilishni taklif qiladilar, o'rtoqlarini himoya qiladilar [3].

Shu tariqa, maktabgacha ta'lim sharoitida bola doimiy ravishda tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi va turli aloqalar o'rnatishi orqali ularning kichik yoshdan boshlab shaxslararo munosabatlari shakllanadi.



Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabati uch jihati bilan katta ahamiyatga ega:

- 1) Muloqotning kommunikativligi yordamida bolalar ma'lumot almashadilar va tengdoshlari tomonidan to'plangan bilimlar zaxirasini bir-biriga uzatadilar.
- 2) Muloqotning interaktiv jihati birgalikdagi faoliyat jarayonida bolalarning bir-biri bilan amaliy o'zaro munosabatga kirishishiga yordam beradi. Bunda ularning hamkorlik qilishi, harakatlarini bir-biri bilan muvofiqlashtirishi va bir-biriga yordam berish qobiliyati nomoyon bo'ladi.
- 3) Muloqotning persektiv jihati ularning shaxsiy xususiyatlari va fazilatlarini o'rganish, tengdoshlarini idrok etish jarayoni sifatida tavsiflanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlarning shakllanishida ularning tengdoshlari bilan aloqasi katta ahamiyatga ega. O'yin jarayonida yoki real hayotda tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali bolalar xulq-atvor me'yorlarini qo'llashni, katallarning munosabatlarini takrorlashni, o'zlarini va tengdoshlarini baholashni o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlari ancha murakkab jarayon bo'lib, u ichki tuzilishga va rivojlanish dinamikasiga ega bo'lgan yaxlit tizimni ifodalaydi. Maktabgacha yoshda bola boshqa odamlar bilan muloqot qilishga va yangi aloqalar o'rnatishga intiladi yoki boshqalarga nisbatan passiv va beparvo bo'ladi. Bunday munosabatlarning har ikkisi ham bolaning keyingi rivojlanishiga ta'sir qiladi. Birinchi vaziyatda insonparvarlik va do'stona munosabat tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi vaziyatda esa, shaxslararo munosabatlardagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va bolalar o'rtasida muvaffaqiyatli hamkorlik uchun sharoit yaratish ishlari olib borilishi kerak. Bu ishlarning barchasi hissiy va psixologik jihatdan rivojlangan shaxsning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdaǵı “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 802-son Qarori
2. Бодалёв А.А. Личность и общение. М.; 1983.
3. Основы психологии: Практикум/под ред. Л.Д. Столяренко. Ростов-на-Дону. Феникс. 2005.
4. Психология педагогического взаимодействия: Учебное пособие/ под ред. Я.Л.Коломинского. СПб: Речь, 2007.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии [Текст] / С.Л.Рубинштейн – СПб: Издательство «Питер», 2010. – 712 с.